

Navro'z - qadim qadriyatlar tarovati

Yangilanish, yasharish fasli boshlandi. Shukuhli bu kunlarda esa yurtimizda Navro'z umumxalq bayrami keng nishonlanadi. Navro'z — bunyodkorlik, birdamlik va rizq-ro'z bayramidir. «Navro'z» bayramiga ham mana oz fursat qoldi. Yurtimizda bayram shodiyonasi. O'lkamizning barcha chekkalarida Navro'z bayrami keng nishonlanadi. Mazkur bayramni tayyorgarlik jarayoni muhtasham Humo Arena muz saroyida ko'tarinki ruhda bo'lib o'tmoqda. Bugun Toshkent irrigatsiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutning "Yer resurlarini boshqarish" fakultetining 50 nafar talaba qizlari fakultetning yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini X.Eshova hamda institut xotin-qizlari kengashining raisi Z.Xafizova hamrohligida faol ishtirok etishmokda. Bugun repitesiya jarayonini birinchi kunida ishtirok etayotgan talaba-qizlarimiz, o'zlariga berilgan vazifani a'llo darajada bajarib, kayfiyatları ham a'llo darajada.Tayyorgarlik jarayoni yuqori ruhda. O'ylaymizki, biz kutgan Navruz bayrami yuqori darajada bo'lib o'tadi. Barchani kirib kelayotgan Navro'zi olam bilan tabriklaymiz.



TIQXMMI matbuot xizmati